



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2026-yil 12-yanvar

3-5-0-Q/26

Navoiy viloyati hokimligi

Viloyatdagi mavjud yerlarning yerdan foydalanuvchilar, yer turlari va toifalari bo‘yicha 2026-yil 1-yanvar holatidagi hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-oktabrdagi 578-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yer resurslarining holati bo‘yicha milliy hisobotini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablariga asosan, viloyatdagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning, yer turlari va toifalari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatidagi Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan yillik hisobotni ko‘rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1. Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan viloyatdagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatidagi yillik hisoboti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyatning barcha tuman, shahar hududlaridagi tadbirkorlik, korxonalar va tashkilotlarga qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanish uchun tuman hokimlarining qarorlari bilan ajratib berilgan yer maydonlarini elektron raqamli xaritalarga hisobga olish, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda yer turlari bo‘yicha belgilangan tartibda hisobotlarga o‘zgartirish kiritish topshirilsin.

3. Barcha tuman (shahar) hokimlariga:

ajratilgan yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazorat olib borish;

barcha yerdan foydalanuvchilar tomonidan o‘zlariga ajratilgan yerlardan yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qilgan holda foydalanishni ta‘minlash;

qishloq xo‘jaligi yerlardan qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan ehtiyojlar uchun yer ajratilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

tashkilot, korxona, fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolar tomonidan davlat yerlarini o‘zboshimchalik bilan egallashga hamda yerlarni talon-taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirilsin.

4. Kadastr agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi (D. Nishonov):

yer qonunchiligiga amal qilgan holda viloyat bo‘yicha yer kadastri hisobotlarini yuritishi ustidan nazorat o‘rnatsin;

yer ajratish hamda yerdan foydalanishga oid qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlariga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar to‘g‘risida viloyat hokimligiga doimiy ravishda ma’lumot taqdim etib borsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari S. Hikmatov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2026-yil 12-yanvardagi
3-5-0-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Viloyatdagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari bo'yicha taqsimlanishi

T/r	Yer toifalari fondi	Gektar hisobida
1	Jamoa xo'jaliklari va xo'jalik kooperativ (shirkat)lari	6 706 798
1.1	<i>Shundan:</i> Massiv va xo'jaliklarga qarashlisi	
1.2	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining hududiy yaylov xo'jaliklari yerlari	5 992 759
1.3	Viloyatlarga qarashlisi	714 038
2	Boshqa vazirlik, tashkilot va korxonalarga qarashlisi	205 982
3	Qishloq xo'jaligi ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari yerlari	2 382
4	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalari yerlari	1 467
5	Fuqarolarning bog'dorchilik, sabzavotchilik, issiqxona, chorvachilik va boshqa yo'nalishdagi yerlari	658
6	Aholi yashash joylari	15 956
7	Sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun berilgan yerlar	95 655
8	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish maqsadlariga berilgan yerlar	739 621
9	Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar	1 656,5
10	O'rmon fondi yerlari	2 988 108,5
11	Gidrotexnik va boshqa suv xo'jalik inshootlari yerlari	167 751
12	Zaxira yerlar	22 052
13	Buxoro viloyati foydalanayotgan yerlar	161 419
	Jami yerlar	11 109 505
	Amalda foydalanilayotgan yer turlari bo'yicha taqsimlanishi	
1	Jami ekin yerlari	124 053
1.1	Shu jumladan sug'oriladigan	93 080
2	Ko'p yillik daraxtzorlar	10 289
2.1	<i>Shundan:</i> bog'lar	4 564
2.2	Uzumzorlar	3 811
2.3	Tutzorlar	1 688
2.4	Boshqa mevali ko'chatzorlar va ko'p yillik daraxtzorlar	226
3	Bo'z yerlar	6 806,5
4	Yaylovlar	8 852 958,5
	Qishloq xo'jalik yer turlari jami	8 994 107
5	Tomorqa yerlar	25 630
6	Bog'dorchilik sabzavotchilik uyushmalari yerlari	752
7	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	2 809

8	Oʻrmonzorlar	1 272 357
9	Boshqa yerlar	652 431
	Yer fondi turlari boʻyicha jami	10 948 086